


“TASDIQLAYMAN”:
“Temiryo‘linfratuzilma” AJ
boshqaruvi raisi


S.A.Norqabilov

**“Temiryo‘linfratuzilma” AJ boshqaruvi raisi rahbarligida odob axloq
komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan**
12 - sonli yig‘ilish BAYONI.

“02” “02” 2026-yil

Toshkent shahar.

Yig‘ilish raisi:

- S.A.Norqabilov – “Temiryo‘linfratuzilma” AJ boshqaruvi raisi;

Yig‘ilish qatnashchilari:

- A.Sh.Kadirov – Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i;
- B.E.Razzoqov - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i;
- A.A.Jumanov – Yuridik boshqarma boshlig‘i;
- Sh.A.Umarova–O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ kasaba uyushma qo‘mitasi raisi;

KUN TARTIBI:

Jamiyat tarkibidagi “Buxoro mintaqaviy temir yo‘l uzeli” filiali va uning hududiy va tezkor bo‘ysinuvidagi filiallarda o‘tkazilgan monitoring natijalar tahlili, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda rahbar xodimlarni javobgarligini oshirish masalalari

Kun tartibiga qo‘yilgan masalalar yuzasidan “Temiryo‘linfratuzilma” AJ boshqaruv raisi S.A.Norqabilov so‘zga chiqib, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisining 2025-yil 22-yanvardagi 39-N-sonli buyrug‘i ijrosi yuzasidan “Temiryo‘linfratuzilma” aksiyadorlik jamiyati tarkibiy tuzilmasini tubdan isloh qilish hamda boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari sonini maqbullashtirish orqali zamonaviy talablarga javob beradigan, ixcham va samarali boshqaruv tizimini yaratish, Jamiyat va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, “halollik vaksinasi”ni targ‘ib qilish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bo‘yicha o‘rganish olib borilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i B.E.Razzoqov Jamiyat va tizim tashkilotlarida korrupsiyani oldini olish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ong va madaniyatini oshirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "**Buxoro MTU**" filiali hamda uning hududiy va tezkor bo'ysinuvidagi filiallarning hisobotlari o'rganib chiqilganligini, uning natijasida aniqlangan kamchiliklarga kelajakda yo'l qo'ymaslik uchun kerakli ko'rsatmalar berilganligi ta'kidladi.

Bundan tashqari, Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan "**Buxoro mintaqaviy temir yo'luzeli**" filiali va uning tezkor bo'ysinuvidagi filiallarda o'tkazilgan monitoring yakuni bo'yicha tuzilgan ma'lumotnomada ko'rsatilgan kamchiliklar to'liq va to'g'ri holda bartaraf etilishi topshirilgan bo'lsada, yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarga takroran yo'l qo'yilgan.

Xususan, "Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati "Samarqand temir yo'l masofasi" filiali boshlig'i **Xamidov Farxod Sattarovich** mazkur filialning bosh muhandisi **Rustamov Elyor Baratovich** bilan **qaynota – kuyov** qarindoshlik darajasida bo'lib, birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi ma'lum bo'lgan.

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati "Buxoro temir yo'l masofasi" filiali boshlig'i **Tuyov Rustam Qo'shshayevich** mazkur filialning boshliq o'rinbosari vazifasini bajaruvchisi **Qo'shshayev Murod Rustamovich** bilan **ota – o'g'il** qarindoshlik darajasida bo'lib, birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi ma'lum bo'ldi.

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati "17-son yo'l mashinalari stansiyasi" (PMS-17) filiali boshlig'i **Mamedov Mustafo Sodikovich** mazkur filialning **hisobchisi Muxammedova Nigora Valiyevna** bilan **er-xotin** qarindoshlik darajasida bo'lib, ular orasida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi ma'lum bo'ldi.

"Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati "Navoiy signallashtirish va aloqa masofasi" filiali MPS-Turon bo'yicha boshliq o'rinbosari **Maxmudov Xasan Maxmud o'gli** mazkur filialning yo'riqchisi - **Maxmudov Xusan Maxmud o'gli** bilan aka-uka qarindoshlik darajasida bo'lib, birining ikkinchisiga bevosita bo'ysunishi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, yig'ilish QAROR QILADI:

1. "Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi S.A. Norqabilov boshchiligida o'tkazilgan yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. "Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli" filiali boshlig'i A.Sh. Bozorovga:

- "Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli" filiali hamda uning hududiy va tezkor bo'ysinuvidagi tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha profilaktik yig'ilishlar muntazam o'tkazilishi ta'minlansin.

- Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilishi hamda ularning ijrosi nazoratga olinsin.

- Jamiyatning 2025-yil 30-sentabrdagi 766-JDS-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Temiryo'linfratuzilma" aksiyadorlik jamiyatining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlari bilan barcha xodimlar belgilangan tartibda tanishtirilsin.

3. "Temiryo'linfratuzilma" AJ Kadrlar boshqarmasi boshlig'i A.Sh. Kadirovga:

- "Buxoro temir yo'l masofasi" hamda "Samarqand temir yo'l masofasi" filiallarida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlariga huquqiy baho berish, ularni bartaraf etish hamda mas'ul mansabdor shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tegishli choralar ko'rilishini ta'minlasin.

4. "Buxoro mintaqaviy temir yo'l uzeli" filiali hamda uning tezkor bo'ysunuvidagi korxonalarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodimlari kelgusida mazkur kamchiliklarning takrorlanishiga yo'l qo'yilgan taqdirda ularga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkinligi haqida ogohlantirilsin.

5. "Buxoro MTU" filialining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodimi N. Mardonovga aniqlangan kamchiliklar va berilgan tavsiyalar yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda unda belgilangan vazifalarning o'z muddatida bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayon yurituvchi
B.E.Razzoqov

